



## O'ZBEK XALQ O'YINLARI VOSITASIDA O'SPIRINLARNI MA'NAVYI-AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

**Mo'minov Anvar Axmatovich**

Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti

**Annotatsiya.** Maqolada o'zbek xalq o'yinlari vositasida o'spirinlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning xususiyatlari, ushbu o'yinlarning bolalar va talabalar tarbiyasidagi o'rni, tarixi ochib berilgan, nazariy psixologik bilimlarni amaliyotda keng qo'llash bo'yicha ilmiy qarashlar chuqur tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sport, tarix, xalq, milliy ochiq o'yinlar, o'spirinlarning aqliy rivojlanishi, xarizma, fiziologiya, rivojlanishning fiziologik jarayonlari, yo'nalishi, strategiyasi, rejasi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab sport va jismoniy tarbiya milliy xususiyatlarini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Respublikada sport va sport madaniyatini rivojlantirish, sport ta'limi uchun qator qonunlar va prezident farmonlari qabul qilindi. Ota-bobolarimiz qoldirgan moddiy va ma'naviy meros xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixidan dalolat beradi. Xalq o'yinlarining paydo bo'lish tarixi tarixiy-arxeologik jamiyatning rivojlanishidagi birinchi bosqich va xalq o'yinlarining etnografik manbalarda paydo bo'lishi va biz milliy o'zbek ochiq sport o'yinlarining rivojlanishi to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlarni topamiz.

O'zbekiston hududida umumxalq -hamma biladigan qiziqarli o'yinlar bilan birga har bir hudud, joyga xos o'yinlar bo'lgan.

Bugungi kunda yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo'nalishini tashkil etib, mazkur sohada respublikamiz va xorijiy mamalakatlarda qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Keyingi yillarda jismoniy tarbiya darslarida, sport mashg'ulotlarida xalqimizning milliy o'yinlariga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Xalqimiz farzandlarining jismoniy qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish tarbiyaning ajralmas qismi bo'lgan jismoniy madaniyat jarayonida amalga oshiriladi. Jismoniy madaniyatning maqsadi jamiyatning sog'lom, xushchaqchaq, har tomonlama jismoniy rivojlangan, mehnat va Vatan himoyasiga tayyor turgan quruvchilarini tarbiyalashdan iborat uzoq muddatli, uyushtirilgan pedagogik jarayondir. Jismoniy madaniyat jarayonida quyidagi asosiy vazifalar hal etiladi:

a) sog'liqni mustahkamlash organizmni chiniqtirish va jismoniy rivojlanish darajasini hamda ish qobiliyatini oshirish;

b) hayotga zarur bo'ladigan, jumladan, amaliy xarakterga ega bo'lgan harakat malaka va ko'nikmani egallash;

v) kishining ma'naviy va irodali sifatini tarbiyalash;

g) jismoniy sifat (tezkorlik, kuch, epchillik, chidamlilik ) ni o'stirish;



d) maxsus sport mashqini bajarish texnikasini egallash. Shu bilan birga o'zbek xalq milliy o'yinlarini to'plash [va ularni hayotga tadbiq etish](#), ulardan oqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifa bo'lib hisoblanadi. Ushbu vazifa yosh avlodni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalovchi jismoniy madaniyat oldiga ham katta ma'suliyat yukladi. Yoshlarni har tomonlama jismoniy baquvvat qilib tarbiyalashga imkon beradigan, o'quvchilar jismoniy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan bu muammoni umumta'lim maktab o'quvchilari jismoniy madaniyatini tashkiliy va pedagogik jarayonlar bilan birga bir-biriga bog'lab kelgan uzviylikda ko'rib chiqish lozimligini keltirib chiqaradi, bunda milliy xalq o'yinlarining roli katta ekanligini qayta-qayta ta'kidlab o'tmoqchimiz. Shuning uchun xalqimizning asrlardan-asrlarga o'tib kelayotgan milliy o'yinlarini avaylab-asrab keyingi avlodga yetkazish yo'llarini izlash, ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish bizning maqsadimizdir. Milliy xalq o'yinlarini xalqimizning bir necha yillik madaniy boyliklari haqidagi tasavvurlarini ma'lum [darajada kengaytiradi](#), hozirgi hayotga singdirish yo'llarini boyitishga yordam beradi. Milliy harakatli o'yinlar jismoniy tarbiyaning eng ta'sirchan usullaridan bo'lib, o'quvchilarda aqliy, ahloqiy va nafosat tarbiyasini birgalikda muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim vositadir. Shuning uchun bolalar o'yinlarining ruhi, tabiati, saviyasi, ishtirokchilarning hatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy madaniyatini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi Shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'alarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan o'zbek xalq milliy o'yinlaridan unumli foydalanib bilishga bog'liq. Chunki milliy o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni egallasa, ikkinchi tomondan, jismoniy madaniyaga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanish masalalari ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xalq bag'rida minglab o'yinlar mavjud bo'lib, bularning orasida hammaga ma'lum o'yinlar bilan bir qatorda, ayrim mintaqalarga xos o'yinlar ham bo'lgan, ba'zan bir qishloq o'yinlari boshqa qishloq o'yinlaridan farq qilgan. Bulardan tashqari, o'zbek xalqining an'analari orasida turli yoshdagilar, turli jinsdagilar, yil fasllari, shahar va qishloqlarga xos o'yinlar tizimi ham bo'lgan

Shunday qilib, o'yin insonning chuqur ma'naviy, ruhiy va jismoniy ehtiyojlaridan kelib chiqib rivojlangan. O'yin juda qadim zamonlardan oq kishilar shakllanishi va rivojlanishining muhim shakllaridan biri bo'lgan. Tarixiy rivojlanish jarayonida har bir etnik guruh (qabila, uruq, elat, millat) ning hayotiy-tabiiy ehtiyojlari asosida o'ziga xos o'yinlar va ma'naviy-ruhiy, jismoniy madaniyati vujudga kelgan. Shuning uchun o'yin asoslarini va jumladan, boy va serqirra xalqo'yinlarini chuqur va har tomonlama o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

Qisqa qilib aytganda, o'yin bolalarda ijodiy faollik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik va boshqako'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.



O'yinlarda bolalarni o'rab turgan dunyoni tushunish va unga ta'sir qilish ehtiyoji shakllanadi, aqliy, axloqiy, irodaviy va jismoniy sifatlari shakllanadi, bir so'z bilan aytganda o'yin yordamida inson tarbiyalanadi, shaxs shakllanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turgunov M.M O`zbek xalqining milliy harakatli o`yinlari ularning pedagogik va fiziologik xususiyatlari. "Экономика и социум" №4(95) 2022
2. Т.С.Усмөнхўжаев., А.А.Пулатов., Ш.А.Пулатов., Д.Х.Абдуллаев. «Теория и практика национальных подвижных игр». Ташкент 2014.
3. Каримжон Рахимкулов. «Национальные подвижные игры».изд. «Тафаккур Бустони». Ташкент 2012.
4. Энциклопедический словарь по физической культуре и спорту. Том 3 Гл. ред.- Г. И. Кукушкин. М., Физкультура и спорт.
5. **Qosimjonova N.F** Xalq o'yinlari - etnomadaniyatning tarkibiy qismi. Eurasian journal of technology and innovation. Accepted: 02nd June 2023.
6. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. - T.: ANavoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007